IJTIMOIY TARMOQLARDA TIL MADANIYATI VA NUTQ ME’YORLARI

Hikmatillayeva Sevara Ne’matillo qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi
Ilmiy rahbar:f.f.f.d.(PhD),dots. **Q.A.Mo‘ydinov**

Annotasiya: Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi nutq madaniyati, bloger, jurnalistlar nutqining ta’sirchanligini oshirish yo‘llari haqida so‘z boradi. Shuningdek, nutq samaradorligiga salbiy ta’sir etadigan holatlar va jurnalistlar nutqining kommunikativ sifatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: til, nutq, yozma nutq, nutq madaniyati, til me’yorlari, ijtimoiy tarmoq, internet.

Annotation: This article discusses the role and importance of speech culture used in social networks, as well as ways to increase the effectiveness of the speech of bloggers and journalists. The article discusses the circumstances that negatively affect the effectiveness of speech, the communicative qualities of journalist’s speech, and ways to improve speech. At the end of the article, reasonable comments, conclusions, and suggestions are given.

Keywords: language, speech, written speech, speech culture, language norms, social networks, internet.

Аннотация: В данной статьи рассматривается роль и значение речевой культуры, используемой в социальных сетях, а также способны повышение еффективности речи блогеров и журналистов. В статье анализируются обстоятельства, негативно влияюшие на еффективность речи, коммуникативные качества речи, коммуникативные качества речи журналистов и пути ейо улучшения. В конце статье приводятся обоснованные коментарии, выводы и переложения.

Ключевые слова: язык, речь, письменная речь, культура речи, языковые нормы, социальные сети, интернет.

Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, Facebook va boshqalar) bugungi kunda ommaviy muloqot maydoniga aylangan. Shu sababli ularda til madaniyati va nutq me’yorlariga amal qilish juda muhim.Til – jamiyat a’zolarining o‘zaro muloqot jarayonida foydalaniladigan tili bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, qadriyatlari va madaniyat darajasini aks ettiradi. Til jamiyatdan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi, shu sababli u ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar ommaviy muloqotning eng faol maydoniga aylandi. Shu sababli ularda til madaniyatiga rioya qilish har bir foydalanuvchining muhim vazifasidir. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardagi til va nutqimizdagi muammolarga to‘xtaladigan bo‘lsak, men hozirgi kundagi mavjud muammolarni sanab o‘taman. Ijtimoiy tarmoqlardagi birinchi muammo bu so‘zlarning ataylab buzib yozilishi. Bugungi kunda ko‘p guvohi bo‘lamiz, ayrim ijtimoiy tarmoqlardagi mas’ul shaxslar ataylab buzib yozishadi. Bu keyinchalik katta muammo va muhokamalarga sabab bo‘ladi. Qisqartmalar va belgilarni ortiqcha ishlatish. Biz internet tarmog‘idan foydalanayotgan paytimiz qisqartirilgan so‘zlarga yoki so‘zlar o‘rnida belgi, stikrlarga, yoki ularga o‘xshash imo-ishoralarga duch kelamiz. Bu esa milliy madaniyatimizga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlarda so‘zlarni qisqartirib yozish va turli belgilarni ortiqcha ishlatish, til madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu nutqning tushunarsiz bo‘lib qolishi, savodxonlikning pasayishi, adabiy til me’yorlarining buzilishi , nutq jiddiyligining

yo‘qolishiga va muloqot madaniyatiga putur yetkazadi. Bular ta’sirida quyidagi muammolar vujudga keladi:

– nutqning tushunarsiz bo‘lib qolishi;
– haddan ziyod qisqartmalar natijasida, matn mazmunini anglash qiyinlashadi;
– barcha foydalanuvchilar uchun tushunarli bo‘lmaydi.

Doimiy qisqartirib yozish imlo qoidalarini unutishga olib keladi. To‘g‘ri va to‘liq yozish ko‘nikmasini susaytiradi.

So‘zlar no‘to‘g‘ri shaklda ommalashgani va yoshlar nutqida noto‘g‘ri yozuv odatga aylanadi va natijada adabiy til me’yorlarining buzilishiga olib keladi. Belgilarni ortiqcha ishlatish esa, fikrni keragidan ortiq hissiy ko‘rsatadi, rasmiy yoki ilmiy muloqotda noo‘rin bo‘ladi. Qisqartmalar va belgilarni me’yorida ishlatish mumkin, ammo ularni haddan ziyod qo‘llash esa, nutqning ravonligi, aniqligini buzadi. Masalan, ko‘p hollarda duch kelamiz kilometrni – km, professorni – prof, santimetrni – sm kabi. Ba’zi hollarda juda xunuk qisqartmalarga ham duch kelamiz. Bu, asosan, nutqimizdagi so‘zlarga e’tiborsizlik alomatidir. Masalan: “qalesan”, “nima gaplar” o‘rniga “nm gap” kabi. Bu imloviy xato hisoblanadi, lekin hozirgi kunda bunga umuman ahamiyat berilmayapti. Eng ko‘p uchraydigan xatolardan biri bu boshqa tillardan foydalanish, ya’ni aralash foydalanish. Ko‘p uchraydigan holatdan biri bu sh-harfi o‘rniga, inglizcha -w harfini ishlatamiz. Bu umuman noto‘g‘ri hisoblansada lekin O‘zbek tilidagi “sh”harfini yozishga erinamiz. Yoki so‘zlarimiz orasiga ruscha “c”harfini qo‘llaymiz. Bu harf ingliz tilida “k”ma’nosini beradi. Hozirgi kunda bunday imloviy xatolar oddiy holatga aylanib bormoqda. Yana bitta biz e’tibor bermaydigan, lekin yo‘l qo‘yadigan xato bu - katta va kichik harflardan noto‘g‘ri foydalanish. Shunday holatlarga guvoh bo‘lamizki, faqat katta harflarda yozilgan jumlalar, yoki faqat kichik harflardan iborat matnlarga duch kelamiz. Bundan tashqari, biz umuman belgilarga e’tibor bermay qo‘ydik. Masalan, gap savol ma’nosida, lekin so‘roq belgisini ishlatmaymiz. Gap his-hayajonda lekin gap oxirida undov belgisi yo‘q. Nuqtadan keyin bosh harfda yozish kerak, degan qoidalarni unutdik. Yoki umuman amal qilmay qo‘ydik.

Agar jamiyat ijtimoiy tarmoqlardagi beparvolik bilan til me’yorlari va qoidalariga, nutq me’yorlariga amal qilmaslik holatlari davom etsa, kelajakda bir qancha muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, tilning buzilishi va qashshoqlashuviga olib keladi. Adabiy til chetga surilib, buzilgan va qisqartirilgan shakllar ustun bo‘ladi. So‘z boyligi borgan sari kamayib, fikrlar yuzaki ifodalanadi. Milliy tilning nufuzi esa pasayadi, balki yo‘qolishi ham mumkin. Bu esa tilning ilmiy, rasmiy va madaniy imkoniyatlarini cheklaydi. Muloqot madaniyatining yemirilishi ham bevosita ijtimoiy tarmoqdagi muloqotdan kelib chiqadi. Qisqa va yuzaki yozish odati chuqur fikrlashga to‘sqinlik qiladi. Murakkab matnlarni tushunish qiyinlashadi. Ilmiy nutqga qiziqish kamayadi. Buning natijasida esa tanqidiy fikrlash jamiyatda susayadi. Agar ijtimoiy tarmoqlarda til madaniyatiga e’tibor berilmasa, bu faqat yozuv muammosi emas, balki butun jamiyatning ma’naviy va intellektual kelajagiga tahdid bo‘ladi. Shu sababdan har bir ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi ayniqsa yoshlar to‘g‘ri va mas’uliyatli nutq bilan jamiyat kelajagiga hissa qo‘shadi. Ijtimoiy tarmoqlarda til madaniyati va nutq me’yorlariga rioya qilish virtual muloqotning asosi hisoblanadi. Yozma nutqda adabiy til qoidalari, me’yorlari va axloqiy odobga rioya qilish, imlo me’yorlari va o‘zaro hurmatni saqlash hamda his-tuyg‘ularni o‘rnida qo‘llash salbiy fikrlarning oldini oladi. Savodli yozish va xushmuomalalik zamonaviy raqamli madaniyatning o‘lchovidir.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlardagi nutq madaniyati insonning o‘zligini ifodalaydi va virtual makonda sog‘lom muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyatiga e’tibor berish jamiyatda sog‘lom axborot muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Aksincha, savodsiz, beparvo va qo‘pol yozuvlar nafaqat tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi, balki umumiy til madaniyatining pasayishiga ham sabab bo‘ladi. Shu bois har bir foydalanuvchi o‘z yozish uslubiga mas’uliyat bilan yondashishi, adabiy til me’yorlarini hurmat qilishi va boshqalar bilan muloqotda madaniyatli bo‘lishi zarur.

Demak, ijtimoiy tarmoqlarda til madaniyatini rivojlantirish faqat shaxsiy masala emas, balki butun jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mo‘ydinov Q., Ikramov R. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2024.
2. Rasulov R., Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – Toshkent, 2025.
3. Sayfullayev R., Mengliyev M., Qurbonova H. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: Tafakkur avlod, 2023.